

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

MEHINBONU OBRAZI XUSUSIDA

Mohigul Mavlonova

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktoranti*

E-mail: mavlonovamohigul@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Mehinbonu obrazi tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada Mehinbonu obrazining tarixiy ildizlari, xalq og‘zaki ijodidan yozma adabiyotga o‘rinlashish jarayonlari hamda dostonning poetik mazmunini ochib berishdagi badiiy vazifalar haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *doston, yozma adabiyot, psixologik konflikt, vazifa, obraz.*

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу образа Мехинбану в эпосе Алишера Навои “Фарход и Ширин”. В статье говорится об исторических корнях образа Мехинбану, процессах его переноса из народного творчества в письменную литературу, задачах раскрытия поэтического содержания эпоса.*

Ключевые слова: *эпос, социальный, исторический корень, письменная литература, психологический конфликт, задача, образ.*

Абстракт: *This article is devoted to the analysis of Mehinbanu’s character in Alisher Navoi’s epic “Farhad and Shirin”. The article talks about the historical roots of Mehinbanu’s character, the processes of its transfer from folk art to written literature, and the tasks of revealing the epic’s poetic content.*

Key words: *epic, social, historical root, written literature, psychological conflict, task, image.*

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy asarlarida ayollar timsoli yuksak pafos, jo‘shqin ehtiros va o‘zgacha mehr-muhabbat bilan talqin qilingan. Xususan, muazzam “Xamsa”dagi xotin-qizlar obrazining deyarli barchasi (“Farhod va Shirin”dagi Zoli makkoradan tashqari) ideal ijobiy qahramonlardir. Ulug‘ shoir, birinchi navbatda, ularning tashqi qiyofasi, benuqson chiroyini ta’rif-u tavsif qiladi. Navoiy go‘zallikni ayollar qadr-qimmatini belgilovchi, tasdiq etuvchi bosh omil deb tavsiflaydi, muhabbatni esa erkka, ozodlikka, ezgulikka talpinish sifatida sharaflaydi. [1.51]. Chunonchi, Mehinbonu obrazini olaylik.

U asarda bosh qahramon darajasida talqin etilmagan bo‘lsa-da, dostonidagi eng faol, mard, mehribon, vatanparvar va adolatli hukmdor ramzidir. “Mehinbonu” so‘zi “ulug‘ xotun”, “ulug‘ beka” ma’nolarini bildiradi, asl ismi esa Shomira (Semiramida)dir [2.502]. U o‘zining davlat boshqaruvidagi aql-zakovati, tadbirkorligi va xalqqa g‘amxo‘rligi bilan zolim podshoh Xusravga qarama-qarshi qo‘yiladi. Navoiy Mehinbonu obrazini yaratishda Kavkaz va Suriya-Midiya xalqlarining afsona va rivoyatlaridan ham ijodiy foydalangan deyish mumkin. Chunki Semiramida afsonaviy qahramon bo‘lib, asli Suriya davlatining malikasi bo‘lgan. Tarixiy manbalar, xususan, yunon yozuvchisi Ktesiyning “Eron tarixi” asarida (e.av.V asrning oxiri – IV

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

boshi) ta’kidlanishicha, Semiramida ma’bud Astartaning qizi edi. Yoshligi kambag‘allik va qiyinchilikda o‘tgan. Assiriya podshosi Ninning Baqtriyaga harbiy yurishi chog‘ida aqlli hiylasi va tadbirli maslahati bilan mushkul ahvolda qolgan shohni qutqaradi hamda g‘alaba qozonishiga katta hissa qo‘shadi. O‘zining go‘zalligi va aql-farosati bilan Suriya shohining e’tiboriga tushadi va shoh Nin unga uylanadi. Nin vafotidan keyin Suriya taxtiga o‘tiradi.

Olima Fozila Sulaymonova Semiramida ismida qadimgi massagetlar malikasi To‘maris, Kavkaz amazonkalari (jangovar ayollar) malikasi Tomiranda, qorqalpoq xalqining jangovar ayollar malikasi Tomir (Samiram shahrida yashagan), grek mifologiyasidagi personaj Tamiris, Kichik Osiyodagi amazonkalar malikasi Mirina, Assiriya malikasi Shammuramat (Shamiram) nomlari bilan hamohanglik borligini yozgan.[3.73-74]

Mehinbonu obrazining ildizlari qadimgi arman afsonalarida Shamiram nomi bilan ham mashhurdir. Rivoyatlarda keltirilishicha, Armanistonning Van ko‘li yaqinidagi Shamirakent shahriga ham u asos solgan. Semiramida Sharq xalqlari o‘rtasida yaratilgan afsonalarda Shommuramat, Shommuramid, Shomira, Markaziy Osiyo adabiyotlarida esa Ashmiram, Mehinbonu nomlari bilan ham mashhur [4.108]. U Shamiram nomi bilan xalq og‘zaki ijodidan yozma adabiyotga o‘tgan. Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostoni orqali xamsachilikning an’anaviy obrazlaridan biriga aylangan. [5.168]

Har qanday badiiy asar mohiyatini anglashda badiiy obrazlar ochqich vazifasini bajaradi. Chunki badiiy asar obrazlar tili bilan so‘zlaydi. Shuni alohida qayd etish joizki, obraz yaratishda har bir davr adabiyoti, qolaversa, har bir ijodkor o‘zgacha yondashishi, ma’lum bir obraz yoki timsolga yangi ma’no yuklashi, uning taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishi mumkin. “Farhod va Shirin”da ham asarning poetik mazmunni yoritib berishi, shu bilan birga shoirning ijodkor sifatidagi mahoratini ko‘rsatib berishi mumkin bo‘lgan timsollardan biri aynan shu – Mehinbonudir. Navoiyda salaflaridan farqli o‘laroq Mehinbonuga yangi vazifalar yuklangan. Nizomiy dostonida Mehinbonu faoliyati faqat Shirin va Xusravlar bilan bo‘lgan munosabatlar orqali yoritiladi, u Farhod haqida hech narsani bilmaydi va u bilan uchrashmaydi ham. Navoiy esa o‘z dostonida Farhod va Mehinbonu o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zining g‘oyaviy niyatlariga ko‘ra keng va yorqin aks ettirishga harakat qiladi. Daho so‘z san’atkori yaratgan Mehinbonu mukammal va yetuk obraz. U – davlat boshqaruvidagi muhim va mushkul vazifalarni ham erkak hukmdorlardan qolishmaydigan, aksincha, o‘rnak bo‘ladigan darajada hal qila oladi:

Ki bu kishvarkim rashki jonondur,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Bukun ismat panohi hukmrondur,

*Ki Afridun sari borur nasabda,
Erur Jamsheddin ortuq hasabda.*

Mehinbonu nomi Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida birinchi marta o‘ttizinchi bobda uchraydi. Farhod va Shopur Armanistonga kelib kanal qaziyotgan mehnatkash xalq bilan uchrashganda mamlakat hukmdori ta’rifini eshitishadi.

Mehinbonu – uzoqni o‘ylab, har bir masalaga vazminlik va aql bilan yondashib ish tutadigan ayol. Adabiyotshunos S.Erkinovga ko‘ra, Mehinbonu ziyrak, donishmand va kuchli diplomat ham edi. U Xusrav tomonidan bir necha bor yuborilgan elchilarning maqsadini bilgach, qiyin vaziyatda qoladi. Farhodga ko‘ngil qo‘ygan Shirinni ham, Shirinni jonidan ortiq ko‘radigan Farhodni ham, agar Xusravga rad javobini bersa, buning oqibatida azob-uqubat tortadigan xalqini ham o‘ylaydi. Lekin sarosimaga tushmasdan, munosabatlarni buzmaslik uchun Xusravning taklifini olqishlaydi, biroq tadbir bilan o‘z bahonasini uzrli qilib tushuntiradi va Xusravning Arman zaminiga bo‘ladigan bosqinini bir qancha muddatga kechiktiradi. Mehinbonu – jur’atli, zukko va mard hukmdor. O‘zidan bir necha baravar katta qo‘shin bilan kelgan Xusravning Farhod nomiga aytilgan noo‘rin ta’na-yu dashnomlariga qo‘rqmasdan qarshi fikr bildirib, uning donishmandligini, hatto Xusravdan ham ustunligini ta’kidlab dadil himoya qiladi:

*Gado debdur, erur ul shohzoda,
Sharafda ondin-u bizdin ziyoda.*

*Ne ilm-u fanki bor olamda ahsaan,
Bu ahsandurki ul bor anda yakfan.*

Garchi elchilar orqali amalga oshayotgan bo‘lsa-da, bu munozarali bahsda Xusravning har bir savoliga Mehinbonu tomonidan ziyraklik va shijoat bilan javob berilishi Eron shohi Kir bilan To‘marisni yodga soladi. Mehinbonu bilan Xusrav o‘rtasidagi bunday psixologik konflikt Mehinbonu obrazining yangi qirralarini namoyon qiladi. Uning yana bir o‘ziga xos, ibratli tomoni shundaki, ilm-fan, hunar va san’at ahllarini qadrlaydi va ularga homiylik qiladi [1.55]. Mamlakatini har jabhada rivojlantirishga, xalqini o‘qimishli va madaniyatli qilishga alohida e’tibor qaratadi. Dostonda Mehinbonu saroyida yuksak fazilatli va barkamol ilm egalari bo‘lgan o‘nta qiz obrazi tasvirlangan:

Biri ash’or bahri ichra g’avvos,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Biri advor davri ichra raqqos.
Biri mantiq rusumida raqamkash,
Biri hay’at ruqumig’a qalamkash...*

Qizlarning ismlari *Dilorom, Diloru, Diloso, Gulandom, Sumanbo‘, Sumanso, Parichehra, Parizod, Parivash* va *Paripaykar* edi. Ularning nafaqat ismi go‘zal, balki jismi ham har qanday ta’rifdan ustun turadi: “Bari ham sarvqomat, ham dilorom”. Buning ustiga, ularning har biri muayyan bir sohada tengsiz: biri she’r, biri raqs san’atida, biri tarix, biri hisobda, biri mantiq, biri nujum, biri balog‘at (adabiyot nazariyasi), biri hikmat (falsafa), biri tasavvuf ilmida, biri muammo san’atini yechishda o‘z davrining eng bilimdoni bo‘lgan. Mehinbonu va Shirin atrofida ana shunday muhitning, doiraning bo‘lishi tabiiy hodisadir. Chunki Mehinbonu Navoiy ta’rifiga ko‘ra o‘zi ham olim, ham barcha ilm-u donish ahliga g‘amxo‘r va mehribon edi. Mehinbonu Shirinning eng yaqin g‘amxo‘ri, har yerda uni himoya qiluvchi qalqoni va uni jonidan ham ortiq yaxshi ko‘ruvchi xolasi edi. Dostonda Shirin bilan bog‘langan biror-bir voqea-hodisada ular ayri holda ko‘rsatilmaydi. Shuning uchun ham Mehinbonu Shirinsiz bu dunyoda hayotni tasavvur qila olmasdi. Farhod o‘limidan keyin Shirin ruhiyatidagi salbiy o‘zgarishlarni ko‘rib, biron nojo‘ya ish qilib qo‘yishidan – o‘ziga zarar yetkazib qo‘yishidan xavotirlanib, uning ortidan kuzatuvchi tayinlaydi va bir necha bor uni o‘limdan saqlab qoladi. Shirinning o‘limi esa Mehinbonuga bu dunyoni qorong‘u qiladi. U ham zor-zor yig‘lab jon beradi:

*Chu Bonu ko‘rdi mundoq turfa holat,
Anga xud bor edi jondin malomat;*

*Chiqib gardun sori afg‘oni oning,
Fig‘oni birla chiqti joni oning.*

*Chu Shirin joni erdi, onsiz o‘ldi,
Damikim onsiz o‘ldi, jonsiz o‘ldi.*

*Magar jon keyincha chiqti fig‘oni,
Va yo chiqti fig‘oni birla joni.*

Mehinbonu Navoiy yaratgan ijobiy obrazlar galereyasining o‘ziga xos durdonalaridan bo‘lib, qalbi yumshoqligi, sermehrligi, xullas, haqiqiy onaligi bilan

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ham diqqatga sazovordir. Uning bu xislati, ayniqsa, Farhod o‘limidan keyin yana ham bo‘rtib ko‘rinadi.[6.49] Chunki Mehinbonu Farhod siymosida dunyodagi barcha noyob go‘zalliklarni, butun vujudi bilan o‘zining g‘ururi va xalqining shon-sharafi bo‘lmish Shirinni samimiy sevuvchi chin insonni ko‘rdi, zotan, Farhod ularga baxt va yorug‘lik keltirdi.

*Aning dardig‘a ko‘p qon yutmish erdi,
Anolardek azosin tutmish erdi.*

Xullas, dostonda Mehinbonu obrazi ezgulik homiysi, mamlakatda tinchlik va adolatning o‘rinlashishiga erkin yo‘l ochib bergan iste‘dod sohibasi, fazilatli va oqil inson tarzida tarannum etilgan. Mehinbonu obrazi genezisi, dostondagi o‘rni, badiiy fazilatlarini atroflicha o‘rganish esa Navoiy dunyoqarashiga keng yo‘l topishga, Sharq adabiyotining o‘ziga xos an‘analarini chuqur o‘rganishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘anieva S. Alisher Navoiy “Xamsa”si. –Toshkent: Fan,1986. –143 b.
2. Mallaev N. O‘zbek adabiyoti tarixi.- Toshkent: O‘qituvchi,1965.- 748 b.
3. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb.-Toshkent: Fan, 1991. – 160 b.
4. Erkinov S. Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili.- Toshkent: Fan,1971. – 276 b.
5. Mallaev N. Alisher Navoiy va xalq og‘zaki ijodiyoti.- Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2015. -431 b.
6. Ahmedov T. “Xamsa” qahramonlarining xarakter jozibasi.-Toshkent: Fan, 1986.- 67 b.